

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA IBORALARNI O'RGATISH ORQALI LINGVISTIK  
KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832082>

**Tog'ayeva Umrxol Qaxramon qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti*

*Mazkur maqola ta'lif tizimida qo'yilayotgan talablarga mos tarzda ta'lif va tarbiya jarayonida o'quvchilarga o'rgatiladigan bilimlarni kundalik faoliyatda mustaqil qo'llay olishlariga poydevor yaratish, o'quvchilarga iboralarni o'rgatish orqali lingvistik kompetensiyani shakllantirishda nazariy va amaliy faoliyatni tahlil etish masalalarini yoritishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, ibora, tadqiqot, lingvistik, kommunikativ.

*Эта статья основана на требованиях системы образования к подготовке студентов к самостоятельному применять полученные знания повседневной жизни в процессе обучения и воспитания, направления на выделения анализа теоретической и практической деятельности при формировании лингвистических компетенций путем обучения студентов фразам.*

**Ключевые слова:** Компетенция, выражения, исследование, лингвистических, коммуникативный.

*This article is based on the requirements of the education system to independently apply the knowledge taught to students in the process of education and upbringing in everyday activities, aimed at highlighting the analysis of theoretical and practical activities in the formation of linguistic competencies by teaching students phrases.*

**Key words:** competence, expression, research, linguistic, communicative.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirish o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlanirish; o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlanirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlanirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyani shakllantirishlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur kompetensiya umumta'lif fanlari orqali o'quvchilarda shakllantirib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga bo'lgan ongli munosabatini yuzaga keltirishda, qiziqishlarini inobatga olgan tarzda shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kun o'qituvchisi, eng avvalo, o'zi har tomonlama tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs

qilib tarbiyalash jarayonlarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi rahbarligida darsga ijodiy va integratsion yondashuv amalga oshiriladi

Usmonov N., Xolboyeva G. va boshqalar tomonidan tuzilgan “Boshlang‘ich ta’limda kompetentlikni rivojlantirish omillari” nomli to‘plamda “Adabiy kompetensiya - adabiyot fani bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotda duch keladigan voqeа-hodisalarga tatbiq etish, adabiy jarayon yangiliklarini tushunish, adabiy-nazariy qoidalardan badiiy asarlarni tahlil qilish va baholashda o‘rinli foydalana olish qobiliyatidir.” deya ta’rif berilgan. Adabiyotga kirish boshlang‘ich ta’limdan boshlanishini inobatga olsak, poydevorni aynan lingvistik kompetensiyanı shakllantirishdan boshlash lozimligi anglashiladi.

Boshlalangich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonlarida ta’lim – tarbiya borasidagi fikrlar bilan qiziqib ko‘rishning samarali tomonlari juda katta. Shuning uchun biz bu boradagi fikrlarni o‘rganib ko‘rishdan oldin uning mazmuniga to‘xtalib o‘tishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

O‘quvchilarda lingvistik kompetensiyanı shakllantirishda asosiy e’tibor ularning nutqiy faoliyatining obrazli bo‘lishi, mustaqil fikrlay olish va dunyoqarashining keng bo‘lishiga ahamiyat qaratilmoqda. Bu o‘rinda boshlang‘ich ta’limdanoq ularning lingvistik bilimlarini chuqurlashtirishga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib so‘z va iboralarning ma’nosi, qo’llanishini o‘quvchilarga o‘rgatib borish yaxshi natija ko‘rsatishi isbotini topmoqda.

Boshlang‘ich sinf darsligida keltirilgan iboralarning ma’no-mazmunini to‘liq holda ochib berish, obrazli tarzda tushunturush, o‘z ma’nosi bilan taqqoslash o‘quvchilar xotirasida o‘rganilgan iboraning ma’nosi mustahkam saqlanishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Darslikdagi o‘quvchi uchun tushunarsiz bo‘lgan har bir so‘z, har bir ibora ma’nosi bat afsil ochib berilishi kerakki, birorta ham o‘quvchi uchun ma’nosi anglashilmagan so‘z yoki ibora qolmasin. Bu orqali o‘quvchillarning lug‘at boyligini oshirish, nutqiy malakalarini o‘tirish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga poydevor yaratamiz. Chunki bola salohiyati, dunyoqarashi o‘sib borgan sari uning nutqi va tafakkuri ham rivojlanadi. “O‘quvchilarning nutqini o‘stirishda aytmoqchi yoki yozmoqchi bo‘lgan jumlalarni oldindan o‘ylab olish ko‘nikmasini hosil qilib borish ham zarur jarayondir. O‘quvchilardan shuni talab etingki, – degan edi M.I. Kalinin, - ular oldin o‘ylasinlar, so‘ngra so‘ylasinlar, lekin oldin gapirib qo‘yib, undan keyin o‘ylamasinlar”<sup>64</sup>. Bu jarayonda esa o‘quvchining lug‘at boyligi asosiy o‘rin tutadi.

O‘quvchilarga iboralar lug‘atini tuzdirish, iboralarga zid ma’noli, muqobil yoki so‘z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilar badiiy asarni o‘qiyotganda uchraydigan shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli iboralar ma’nosi sharhlangan izohli lug‘at daftari tutsalar, mazkur so‘zlar ishtirok etgan gaplar tuzsa,

<sup>64</sup> Tojiyeva H. Iboralar o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish metodikasi. Bitiruv malakaviy ishi. - Jizzax: 2020.

so‘z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini takomillashtirishda muhim qadam qo‘ygan bo‘lamiz.

Boshlang‘ich ta’lim dasturida iboralarni o‘rgatish uchun alohida dars soati ajratilmagani va darslikda asosiy bir mavzu sifatida kiritilmaganligi uchun o‘quvchilarga iboralarni o‘rgatish jarayonida bir-qancha qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Masalan, so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llaganimizda tinglovchiga ba’zan tushunarli, ba’zan mavhum tushuncha bo‘lib qolishi mumkin. Iboralar esa to‘lig‘icha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan frazalogiyalardir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun iboraning ma’nosini tez va ongli ravishda tushunilishi qiyin holatdir. Aynan shu jarayonda o‘qituvchidan katta mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi va o‘qituvchi iboralar tarkibi, tuzilishi, anglatgan ma’nolari jihatidan o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘ota olishi kerak.

O‘quvchining kerakli bilimlarni puxta o‘zlashtirishida va unda lingvistik kompetensiyani shakllantirishda eng avvalo, uning diqqatini fan yoki mavzuga to‘liq jalg qila bilish muhimdir. Maktabga endigina qadam qo‘ygan bolada diqqatning biringchi turi-ixtiyorsiz diqqat ustun bo‘ladi. Uning diqqati tez bo‘linishini, chalg‘ishini, o‘zini bir joyga ushlab turolmasligini kuzatish mumkin. Shunday paytda bola uchun muhim va qiziqarli bo‘lgan narsalarni unga ko‘rsatish, bu narsalarning shakli, ko‘rinishi, joylashgan o‘rni, katta-kichikligi, bir-biridan farqi va rangiga nisbatan bolaning diqqat-e’tiborini kuchaytiradi. Endi esa bola bu narsani sinchiklab o‘rganish davomida narsaga nisbatan ongini bir nuqtada ushlay oladigan bo‘ladi. Natijada bu narsaning nima uchun xizmat qilishini, qanday ishlatalishini ham o‘rganadi. Aynan bunday tadbirlar bola xotirasining rivojlanishi uchun ham yordam beradi. Buni amalga oshirish uchun, albatta, psixologik mashq va treninglardan foydalanamiz. Chunki, o‘quvchini dastlab fanga olib kirish, uni fan bilan bog‘lashdan oldin bolani bu jarayonga tayyorlash lozim bo‘ladi.

Iboralar ustida ishslash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o‘rganishda, asosan, ona tili va o‘qish darslarida darslik materiallarini o‘rgatish bilan bog‘liq holda olib boriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga iboralarga oid bilimlar berish faqat ona tili darslari bilan chegaralanib qolmasdan, o‘qish darslari davomida ham o‘rgatib boriladi. Ayniqsa, tilning lug‘at tarkibini, undagi eskirgan va yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni, shevaga xos so‘zlarni, kasb – hunarga oid so‘zlarni, ruscha – baynalminal so‘zlarni o‘rgatishda o‘qish kitobida berilgan matnlar tahlili, har bir darsda o‘tkaziladigan lug‘at ishlari katta ahamiyatga ega. Bunda amaliy ishlar orqali nazariy bilimlar hosil qilib boriladi.

Iboralarni o‘rgatish orqali lingvistik kompetensiyani shakllantirish pedagog umumiyl ishining tarkibiy qismi bo‘lib, bunda o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatini sayqallanib, boyib boradi. Ta’lim muassasalarida lingvistik kompetensiyani

rivojlantirishning yo‘lga qo‘yishi quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko‘riklar, konferensiya, bahs-munozara o‘tkazish va o‘quvchilar jamoasini keng jalg etish.

Lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o‘z o‘rni, mavqeい va ahamiyatiga ega. Lingvistik kompetensiyani shakllantirish qamrovi keng, shu bois, ularni qanday shakl va uslubda o‘tkazilishi mutaxassis-o‘qituvchining pedagogik tajribasi, mahorati hamda o‘quv muassasi rahbariyati, jamoasining, fan o‘qituvchilarining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashi, ularga tashkiliy jihatdan yordam ko‘rsatish, shu bilan birga o‘quvchilarning istak-xohishlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini va ijtimoiy faoliyklarga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda lingvistik kompetensiyani shakllantirishning hamma turlariga ma’lum dastur bo‘yicha to‘la va keng miqyosda xarakteristika berish uchun yetarli ma’lumotlar yaratilmagan. O‘qituvchi qo‘zg‘aluvchan tipdagi bolada uning o‘zini tuta bilmasligiga yo‘l qo‘ymay, o‘zini tuta bilish malakasini tarbiyalay olishi kerakligini hisobga olishi lozim. Muntazam ravishda tegishli faoliyatni tashkil etib, muayyan sharoitga qo‘yib qo‘zg‘aluvchan bolani o‘zini mustaqil fikrlay olishga o‘rgatishi kerak. Biz boshlang‘ich sinf fan darslarida har xil qiziqrli o‘yinlar, turli muammoli vaziyatlar yaratish va boshqotirmalardan foydalanishimiz orqali ko‘zlagan maqsadimizga yetishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Mengliyev B.R. Til ta’limida kompetensiyaviy yondashuv// Ma’rifat. 2014.8- 9 betlar.
2. Asadov Y.M. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv// Maktab va hayot. 2014. 8-10 betlar.
3. Boltayeva B. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash va matn tuzishga o‘rgatish (<https://primedu.jspi.uz/index.php/primedu/article/view/4265>) 2021.
4. Boltayeva, B. (2021). Badiiy adabiyot asosida o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar, 2(3). извлечено от <https://primedu.jspi.uz/index.php/primedu/article/view/4266>
5. Жуманазарова Г., Болтаева Б., Кулбоева Д. Бошланғич синфларда ибораларни ўрганиш методикаси. Uslubiy qo‘llanma. Тошкент: —Турон замин зиёл, 2017, 90 б.